


SIRDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2026-yil 1-mart holatiga ko'ra

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxona va tashkilotlarning soni

2026-yil 1-mart holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 12 627 tani tashkil etdi, shundan 10 360 tasi yoki 82,0 foizi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keladi.



Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (birlikda).



Soni



O'sish sur'ati

Yil	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
2026	12 627	10 434	10 360
2025	11 051	9 037	8 961
2024	13 109	10 941	10 879
2023	13 544	11 428	11 360
2022	16 154	14 086	14 029

Hududlar bo'yicha eng ko'p faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar Guliston shahrida – 24,4 foiz, Sirdaryo – 12,5 foiz, Sardoba – 9,0 foiz, Boyovut – 8,9 foiz va Mirzaobod – 8,9 foiz tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik subyektlarining faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar umumiy sonidagi salmoqli ulushi Yangiyer shahrida – 88,6 foiz, Sardobada – 87,3 foiz, Mirzaobod – 85,2 foiz hamda Oqoltin – 84,4 foiz tumanlariga to'g'ri keldi.

Hududlar	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Sirdaryo viloyati	12 627	10 434	10 360
<i>Tuman va shaharlar:</i>			
Guliston shahri	3 084	2 532	2 511
Yangiyer shahri	944	836	834
Shirin shahri	301	236	233
Boyovut tumani	1 127	884	880
Guliston tumani	921	752	750
Mirzaobod tumani	1 128	961	951
Oqoltin tumani	806	680	679
Sayxunobod tumani	818	647	640
Sardoba tumani	1 137	993	988
Sirdaryo tumani	1 573	1 316	1 303
Xovos tumani	788	597	591

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)


[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

2026-yil 1-mart holatiga faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida bo'lib, uning jami korxonalar sonidagi ulushi 29,6 foizni tashkil etdi.

Ikkinchi o'rinda "Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi" 16,9 foizni, uchinchi o'rinda "Sanoat" 9,9 foizni tashkil etdi.

Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 56,4 foizdan ortig'ini tashkil qiladi.



Korxona va tashkilotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Jami:	12 627	10 434	10 360
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 130	2 114	2 103
Sanoat	1 247	1 241	1 211
Qurilish	873	863	858
Savdo	3 742	3 742	3 736
Tashish va saqlash	286	284	283
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	757	755	754
Axborot va aloqa	226	215	214
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	321	161	157
Boshqa turlar	3 045	1 059	1 044

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2026-yil 1-mart holatiga ko'ra, 10 434 ta faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalaridan 9 134 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi.

Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)

	2022	2023	2024	2025	2026
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	10 937	9 434	9 241	7 753	9 134
Xususiy korxonalar	2 447	1 425	1 176	881	892
Oilaviy korxonalar	344	269	298	259	257
Aksiyadorlik jamiyati	23	14	12	11	14
Boshqalar	337	286	214	133	137

Shundan kelib chiqib, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Tashkiliy-huquqiy shakli	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	9 134	87,5
Xususiy korxonalar	892	8,5
Oilaviy korxonalar	257	2,5
Aksiyadorlik jamiyati	14	0,1
Boshqalar	137	1,4

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyat soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Mamlakatimizda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb qilish uchun eng qulay investitsiya muhitini yaratish maqsadida, iqtisodiyotni liberallashtirish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, investitsiyalardan erkin foydalanishni ta'minlash shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Natijada har yili xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar ko'payib bormoqda.

Hududlar kesimida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalarning jami soniga nisbatan eng katta ulushi Sirdaryo tumani 21,9 foiz, Guliston shahri – 20,6 foiz, Yangiye shahri – 15,3 foiz va Mirzaobod tumani – 11,6 foizga to'g'ri keladi.


Hududlar	Jami:	<i>shundan:</i>	
		qo'shma korxona	xorijiy korxona
Sirdaryo viloyati	301	97	204

Tuman va shaharlar:

Guliston shahri	62	15	47
Shirin shahri	18	2	16
Yangiye shahri	46	11	35
Boyovut tumani	19	3	16
Guliston tumani	10	3	7
Mirzaobod tumani	35	15	20
Oqoltin tumani	4	2	2
Sardoba tumani	9	4	5
Sayxunobod tumani	10	4	6
Sirdaryo tumani	66	32	34
Xovos tumani	22	6	16

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 288 ta korxonalardan 97 tasi qo'shma korxonalar va 204 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar

2026-yilning 1-mart holatiga ko'ra, xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni, 2025- yilning mos davriga nisbatan 93 taga oshgan. Bu asosan, sanoat sohasidagi korxonalar sonining 106 tadan 135 taga, (o'sish 29 taga), axborot va aloqa sohasida 19 tadan 42 taga (o'sish 23 taga) va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi sohasida 26 tadan 32 taga (o'sish 6 taga) ko'payishi bilan bog'liq.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	301	97	204
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	32	14	18
Sanoat	135	52	83
Qurilish	9	4	5
Savdo	51	15	36
Tashish va saqlash	7	4	3
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	5	1	4
Axborot va aloqa	42	-	42
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1	-	1
Boshqa turlar	19	7	12

Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilinganda, yetakchi o'rinni 111 ta korxona bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 36,9 foizini tashkil etdi. O'zbekiston iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shayotgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (11,6 %), Qozog'iston (8,0 %), Turkiya (7,6 %) va Tojikiston (6,9 %) ham alohida o'rin egallaydi.

Davlatlar	Jami:	<i>shundan:</i>	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Xitoy	111	31	80
Rossiya	35	10	25
Turkiya	23	7	16
Tojikiston	21	6	15
Qozog'iston	24	13	11
Afg'oniston	18	7	11
Qirg'iziston	8	3	5
BAA	11	3	8
Buyuk Britaniya	8	4	4
Janubiy Koreya	8	2	6
Ozarbayjon	7	3	4
Pokiston	4	1	3
AQSH	4	2	2

IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2026-yil 1-mart holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'ligni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:

Raqamlashtirish va statistik
regisrlarni yuritish bo'limi

Ijrochi:

X. Sariboyev
67 236-70-00 (2060)

Maznil:

120100, Guliston sh.,
Birlashgan ko'chasi, 62
